

## Sirdaryo viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
- III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
- IV. Ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

### I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli **2,0** barobarga ko'paydi, ayniqsa joriy davrda o'tgan yilga nisbatan **5 619,8** mlrd so'mga ko'p investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi



So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, joriy davrda eng yuqori o'sish sur'ati – 158,5 % kuzatilgan bo'lsa, 2024-yilda eng past o'sish sur'ati 75,6 % qayd etilgan.

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga 2025-yil yanvar-sentabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 14 223,4 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 158,5 % ni tashkil etdi.




Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2024-y.	2025-y.
<b>Jami</b>	<b>14 223,4</b>	<b>158,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>1 615,3</b>	<b>277,5</b>	<b>6,5</b>	<b>11,4</b>
respublika budjeti	391,0	91,0	4,8	2,8
Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	154,9	183,9	0,9	1,1
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	533,3	-	-	3,7
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	41,7	-	x	x
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	536,1	7,9 m.	0,8	3,8
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	41,7	8,0 m.	x	x
<b>markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>12 608,1</b>	<b>150,3</b>	<b>93,5</b>	<b>88,6</b>
korxonalar mablag'lari	1 337,9	117,7	12,7	9,4
aholi mablag'lari	252,4	103,0	2,6	1,8
to'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	10 486,3	159,4	73,4	73,7
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	822,6	164,1	x	x
<i>shundan:</i>				
<i>to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>7 494,4</i>	<i>159,3</i>	<i>52,5</i>	<i>52,7</i>
<i>shu jumladan, mln.AQSh dollarida</i>	<i>587,5</i>	<i>163,9</i>	<i>x</i>	<i>x</i>
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	531,5	123,6	4,8	3,7

2025-yil yanvar-sentabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1 615,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,8 barobar ko'p investitsiyalar o'zlashtirildi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 11,4 % ga yetdi.

**Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi**



2025-yil yanvar-sentabr oylarida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 12 608,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 150,3 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 88,6 % ga yetdi.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari ichida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi yuqori bo'lib, jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 73,7 foizni yoki 10 486,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, korxonalar va aholi mablag'lari hisobidan 1 590,3 mlrd so'm asosiy kapitalga o'zlashtirilib jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 11,2 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning  
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi**

	Jami investitsiyalar, mlrd so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxonalar va tashkilot	Aholi	Xorijiy investitsiya va kredit	Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>14 223,4</b>	<b>2,8</b>	<b>9,4</b>	<b>1,8</b>	<b>77,5</b>	<b>1,1</b>	<b>3,7</b>	<b>3,7</b>
shaharlar								
Guliston	1 278,3	8,8	22,7	4,4	47,5	4,3	9,4	2,9
Shirin	3 133,5	0,0	2,4	0,1	97,3	0,0	0,2	0,0
Yangiyer	2 672,4	1,1	2,9	0,3	91,6	0,5	0,7	2,9
tumanlar								
Boyovut	895,0	4,0	9,6	2,2	74,4	2,2	5,1	2,5
Guliston	436,8	5,9	41,7	3,3	34,2	0,0	11,8	3,1
Mirzaobod	704,9	3,8	10,0	1,9	70,9	1,4	6,4	5,6
Oqoltin	966,3	0,5	4,8	0,7	82,2	0,0	2,3	9,5
Sardoba	782,5	1,8	13,9	1,9	70,7	0,2	2,3	9,2
Sayxunobod	1 381,7	2,2	3,4	0,8	86,6	0,1	5,0	1,9
Sirdaryo	1 257,9	3,9	25,3	6,6	46,2	0,4	7,6	10,0
Xovos	714,1	8,7	4,8	3,1	66,9	6,7	6,1	3,7

**II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 5 494,4 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 38,6 % o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so‘m	umumiy hajmga nisbatan, %da	
		2024- y.	2025- y.
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami</b>	<b>14 223,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1 799,0	8,9	12,6
Axborot va aloqa	17,0	0,4	0,1
ishlab chiqarish sanoati	5 494,4	26,5	38,6
elektr energiyasi, gaz, bug‘ va kondensiyalangan havo	3 151,5	42,4	22,2
suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish	277,7	1,7	2,0
Qurilish	296,1	3,6	2,1
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	337,7	5,7	2,4
tashish va saqlash	368,8	1,4	2,6
boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish	75,1	0,3	0,5
Davlat boshqaruvi va mudofaa	48,1	0,6	0,3
moliya va sug‘urta faoliyati	49,5	0,5	0,3
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	50,8	0,1	0,4
ta‘lim	671,0	1,2	4,7
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	257,0	1,1	1,8
san‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	42,7	0,3	0,3
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	1 189,6	3,5	8,4
boshqa faoliyat turlari	97,4	1,8	0,7


### III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2025-yil yanvar-sentabr oylarida jami asosiy kapitalga 864,3 mln dollar (11 022,4 mlrd so‘m) xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirilgan bo‘lsa, ulardan 587,5 mln dollari (7 494,4 mlrd so‘m) yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 68,0 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

#### Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so‘m

	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	O‘z.Res. kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	Boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>7 494,4</b>	<b>536,1</b>	<b>2 991,9</b>
shaharlar			
Guliston	67,9	83,2	456,7
Shirin	3 049,8	-	-
Yangiyer	1 782,7	23,3	640,0
tumanlar			
Boyovut	382,8	283,1	-
Guliston	33,2	23,2	93,2
Mirzaobod	461,8	-	38,3
Oqoltin	405,0	-	389,2
Sardoba	293,8	0,6	258,4
Sayxunobod	472,3	23,3	701,2
Sirdaryo	273,1	23,3	285,5
Xovos	272,0	76,1	129,4

#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



#### IV. Ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2025-yil yanvar-sentabr oylarida jami 90,2 ming kv.m turar-joylar ishga tushirilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 100,4 % ni tashkil etdi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda viloyat bo'yicha jami 344 ta turar-joylar ishga tushirildi, ularning 189 tasi qishloq joylar hissasiga to'g'ri keldi.

#### Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar-joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylarda ming kv.m	Suv tarmog'i, km	Gaz tarmog'i, km
Sirdaryo viloyati	90,2	49,4	-	-
shaharlar				
Guliston	29,0			
Shirin	0,6		-	-
Yangiyer	3,5		-	-
tumanlar				
Boyovut	2,4	2,3	-	-
Guliston	2,5	2,5	-	-
Mirzaobod	2,1	2,1	-	-
Oqoltin	0,4	0,0	-	-
Sardoba	3,1	2,2	-	-
Sayxunobod	1,0	1,0	-	-
Sirdaryo	40,3	34,0	-	-
Xovos	5,3	5,3	-	-

## V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga** barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

**Chet el investitsiyalari** – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu** – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxonalar aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Mazkur ko'rsatkichga shuningdek moliyalashtirishining barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hamda texnik va hayriya yordam, "MEN" shartnomalari, ta'sischilarning yangi asosiy vosita sifatidagi badallari, shuningdek intellektual mulkchilik obyektlariga va intellektual faoliyat mahsulotlariga investitsiyalar kiritiladi.

## Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- VI. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 4 434,3 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 130,7 % ni tashkil etdi.

### Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Mirzaobod tumani (1 152,4 mlrd so'm), Guliston shahri (731,7 mlrd so'm) va Yangiyer shahrida (465,9 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.



### Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati *</b>	<b>4 434,3</b>	<b>130,7</b>
Guliston sh.	731,7	101,7
Shirin sh.	259,1	120,6
Yangiyer sh.	465,9	148,7
Boyovut	70,3	104,2
Guliston	118,6	135,7
Mirzaobod	1 152,4	185,3
Oqoltin	66,0	112,7
Sardoba	230,9	2,2 m.
Sayxunobod	97,6	107,8
Sirdaryo	284,7	109,3
Xovos	103,7	103,2

\* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

#### II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 66,3 foizi yoki **2 941,2** mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **776,2** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi* – **26,4** %;

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – **1 795,5** mlrd so'm *hamda ulushi* – **61,0** %;

Norasmiy sektor – **369,5** mlrd so'm *hamda ulushi* – **12,6** %.

#### III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025-yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 60,5 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 129,6 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yoʻnalishi 35,2 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 132,7 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yoʻnalishi 4,3 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 142,2 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha qurilish ishlari oʻsish surʻati va hajmi



### Bino va inshootlar qurilishining asosiy koʻrsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, “Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq “Qurilish faoliyati boʻyicha oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi” koʻrsatkichi qoʻllaniladi.

Bino va inshootlarni qurish boʻyicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 13,9 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi koʻrsatkichga nisbatan 5,6 % ga koʻpaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,5 % ga kamayib 63,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,1 % ga kamayib, 22,9 % ni tashkil etdi.


### Bino va inshootlar qurilishining hajmi va o'sish sur'ati



### Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 24,8 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,1 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,1 % ga kamayib 75,2 % ni tashkil etdi.

### Fuqarolik obyektlari qurilishining hajmi va o'sish sur'ati




### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga ko'paydi va 8,7 % ni tashkil etdi.

Qolgan 91,3 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga kamaydi.

### Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



### IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 776,2 mlrd soʻmni tashkil etdi. Koʻrib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 164,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,6 % ga koʻpayib, 17,5 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 68,6 % i toʻgʻri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,3 % ga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga toʻgʻri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 130,6 % ni tashkil etgan holda 3 043,4 mlrd soʻm miqdorida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida korxonalar turlari boʻyicha  
bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd soʻm			Oʻsish surʼati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
<b>Sirdaryo viloyati *</b>	<b>776,2</b>	<b>3 043,4</b>	<b>614,7</b>	<b>164,8</b>	<b>130,6</b>	<b>103,5</b>
Guliston sh.	40,8	623,8	67,1	188,0	101,6	79,5
Shirin sh.	192,8	62,1	4,2	129,6	98,5	140,4
Yangiyer sh.	-	452,4	13,5	-	150,1	113,2
Boyovut	16,6	34,2	19,5	3,9 m.	81,7	90,9
Guliston	30,6	75,1	12,9	5,2 m.	111,2	91,0
Mirzaobod	125,5	1 014,3	12,6	97,6	2,1 m.	119,9
Oqoltin	13,9	42,0	10,1	169,0	105,7	94,7
Sardoba	137,5	78,9	14,5	42,5 m.	86,9	111,1
Sayxunobod	6,0	79,9	11,7	61,0	116,0	98,9
Sirdaryo	62,3	132,4	90,0	2,4 m.	77,7	140,4
Xovos	27,6	54,2	21,9	100,6	109,2	93,1

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 13,9 % ni yoki 614,7 mlrd soʻmni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil etdi. Shundan 366,2 mlrd soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 3,2 mlrd soʻmni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 245,3 mlrd soʻmni va 107,5 % ni tashkil etdi.

## V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.